



NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR
LOYIHASINI ISHLAB CHIQISH VA
KELISHISHNING YAGONA ELEKTRON TIZIMI

ID-5693 (V-2)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori

**Musiqqa madaniyati va jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining
bilim darajasi hamda kasbiy mahoratini aniqlash bo'yicha milliy
baholash tizimini joriy etish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqqa madaniyati fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-391-son hamda "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-392-son qaroriga muvofiq hamda musiqqa madaniyati va jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash bo'yicha milliy baholash tizimini amaliyotga joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqqa madaniyati fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-391-son hamda "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-392-son qarorlariga asosan musiqqa madaniyati va jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash bo'yicha milliy baholash tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. **2025/2026-o'quv yilidan boshlab** musiqa madaniyati hamda jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash bo'yicha milliy baholash tizimi amaliyotga joriy etilsin.

3. Belgilab qo'yilsinki, musiqa madaniyati hamda jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash bo'yicha milliy baholash quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi:

birinchi bosqich – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o'tkaziladigan test sinovlari;

ikkinchi bosqich – Madaniyat vazirligi va Sport vazirligi tomonidan o'tkaziladigan amaliy (ijodiy) imtihon.

4. Musiqa madaniyati hamda jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining bilim darajasini aniqlash uchun tuziladigan test savollari davlat ta'lim standartlariga mos ravishda hamda o'quv dasturlariga muvofiq Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan, kasbiy mahoratini aniqlash bo'yicha o'tkaziladigan amaliy (ijodiy) imtihon materiallari Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan kelishgan holda Madaniyat vazirligi va Sport vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi.

5. Quyidagilar:

Musiqa madaniyati hamda jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining bilim darajasini va kasbiy mahoratini aniqlash va ularga sertifikat berish tartibi to'g'risidagi nizom **1-ilovaga** muvofiq;

O'qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahorati to'g'risidagi sertifikatning davlat namunasi va tavsifi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

6. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri K.A. Sharipov,

maktabgacha va maktab ta'limi vaziri X.U. Umarova, madaniyat vaziri O.A. Nazarbekov va sport vaziri A.I. Ikramov belgilansin.

O'zbekiston Respublikasining

Bosh vaziri

A. Aripov

Vazirlar

Mahkamasining

2025-yil “ ”-martdagi -son qaroriga 1-ilova

**Musiqqa madaniyati hamda jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining
bilim darajasini va kasbiy mahoratini aniqlash va ularga sertifikat
berish
tartibi to‘g‘risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom musiqqa madaniyati va jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining bilim darajasi hamda kasbiy mahoratini aniqlash va sertifikat berish tartibini belgilaydi.

2. Musiqqa madaniyati va jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining bilim darajasi hamda kasbiy mahoratini aniqlash bo‘yicha milliy baholash tizimi quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi:

birinchi bosqich — Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o‘tkaziladigan test sinovlari;

ikkinchi bosqich — ikkinchi bosqich – Madaniyat vazirligi va Sport vazirligi tomonidan o‘tkaziladigan amaliy (ijodiy) imtihon.

Musiqqa madaniyati va jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining bilish darajasini aniqlash va davlat namunasidagi sertifikatni (keyingi o'rinlarda — sertifikat) berishda test sinovlari Bilim va malakalarni baholash agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) tomonidan to'lov asosida amalga oshiriladi.

Amaliy (ijodiy) imtihon Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Madaniyat vazirligi va Sport vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan mezon asosida o'tkaziladi hamda baholanadi.

Amaliy (ijodiy) imtihon Madaniyat vazirligi va Sport vazirligiga ajratiladigan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi. Amaliy (ijodiy) imtihonni o'tkazish vaqti Agentlik, Madaniyat vazirligi va Sport vazirligi tomonidan belgilanadi.

3. Sertifikat Agentlik tomonidan elektron shaklda beriladi.

Sertifikat berishda test sinovlarini o'tkazish uchun talabgordan ariza berilgan kundagi bazaviy hisoblash miqdorining 1,5 baravari miqdorida to'lov undiriladi. To'lov Agentlikni rivojlantirish jamg'armasi hisobvarag'iga o'tkaziladi. To'lovning 0,3 baravari miqdori mos ravishda Madaniyat vazirligi va Sport vazirligiga o'tkaziladi.

Musiqqa madaniyati va jismoniy tarbiya fanlarini bilish darajasini aniqlash bo'yicha A+, A, B+, B, C+, C, darajali sertifikatlar beriladi.

Test natijalari xalqaro metodika — Rash modeli asosida hisoblanadi.
Amaliy (ijodiy) imtihon hamda test sinovlarining o'rtacha natijasiga ko'ra:

70 balldan yuqori ball olgan talabgorga A+ daraja;

65 — 69,9 ball olgan talabgorga A daraja;

60 — 64,9 ball olgan talabgorga B+ daraja;

55 — 59,9 ball olgan talabgorga B daraja;

50 — 54,9 ball olgan talabgorga C+ daraja;

46 — 49,9 ball olgan talabgorga C darajali sertifikat beriladi.

Sertifikat 3 yil muddatga beriladi. Bunda:

B+ va undan yuqori darajali sertifikat olgan o'qituvchiga qonunchilikda belgilangan tartibda oylik maoshiga ustama beriladi.

4. Musiqa madaniyati va jismoniy tarbiya fanlarini bilish darajasini aniqlash va davlat namunasidagi sertifikatni berish uchun tuziladigan test savollari davlat ta'lim standartlariga mos ravishda hamda ta'lim o'quv dasturiga muvofiq Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Madaniyat vazirligi va Sport vazirligi tomonidan tavsiya etilgan fan mutaxassislari tomonidan Agentlikda ishlab chiqiladi.

Test sinovlari o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasini tizimli va asosli baholash uchun yaratilgan, turli shakl va qiyinlik darajasidagi parallel topshiriqlar tizimini nazarda tutadi.

2-bob. Musiqa madaniyati va jismoniy tarbiya fanlarini bilish darajasini aniqlash bo'yicha test sinovini tashkil etish tartibi

5. Musiqa madaniyati va jismoniy tarbiya fanlari bo'yicha test topshiriqlari formati (fanlar majmuasi, fan mazmuni tarkibi, savollar soni, topshiriqlar turi, vaqt me'yori), baholash mezonlari, test sinovining o'tkazilishi muddatlari Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Madaniyat vazirligi, Sport vazirligi bilan kelishiladi va Agentlik tomonidan tasdiqlanadi hamda Agentlikning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

6. Musiqa madaniyati va jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari (keyingi o'rinlarda — talabgor) sertifikat olish maqsadida test sinovida qatnashish uchun Agentlikning “Abituriyentlar ma'lumotlari va arizalarini ro'yxatga olish tizimi” orqali elektron ariza berib ro'yxatdan o'tadi. Tizim Madaniyat vazirligi va Sport vazirligining elektron platformasiga integratsiya qilinadi.

7. Ro'yxatdan o'tish quyidagi hujjatlar asosida amalga oshiriladi:

shaxsni tasdiqlovchi hujjat: fuqarolik pasporti (fuqaroligi bo'lmagan shaxsning yashash guvohnomasi) yoki ID kartasi;

3,5 x 4,5 sm o'lchamli oq fondagi rangli fotosuratning elektron shakli (fuqaroligi bo'lmagan shaxs yashash guvohnomasi bilan murojaat qilganda).

Talabgor uchun Agentlikning rasmiy veb-saytida shaxsiy kabinet yaratiladi.

Talabgor to'lovni amalga oshirgandan so'ng u ro'yxatdan o'tgan va Agentlik bilan ommaviy oferta shartnomasi tuzilgan hisoblanadi.

Qayd etilgan hujjatlardan birortasi mavjud bo'lmasa, tizim hujjatlarni qabul qilishni rad etadi.

Talabgor haqidagi ma'lumotlarning to'g'riligiga talabgor shaxsan o'zi javobgar hisoblanadi.

8. Agentlik tomonidan talabgor to'g'risidagi shaxsga doir ma'lumotlar maxfiyligi ta'minlanadi. Qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sud tomonidan rasmiy murojaat bo'lgan taqdirda, ariza beruvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etiladi.

9. Test sinovini o'tkazish joyi va sanasi Agentlik tomonidan belgilanadi.

10. Talabgorning test sinovida belgilangan o'tirish o'rnini Agentlik tomonidan qur'a tashlash yo'li bilan aniqlanadi va dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

11. Test sinovi blankalar (javoblar varaqasi)da yoki kompyuter (onlayn platforma)da o'tkazilishi mumkin. Test sinovi blankalar (javoblar varaqasi) talabgorning bilimni baholash uchun asos hisoblanadigan yagona hujjatdir.

Test sinovi tegishli dasturiy ta'minot asosida kompyuterda o'tkazilganda bilimni baholashning barcha bo'limlari qamrab olingan holda amalga oshiriladi.

12. Test sinovi Agentlik mas'ul xodimining rahbarligi va nazoratida o'tkaziladi.

Test sinovi vaqtida har bir ish joyida bir nafar talabgor o'tiradi. Test sinovini o'tkazish jarayoni doimiy videotasvirga olinadi.

13. Test sinovini o'tkazish uchun Agentlik tomonidan guruh nazoratchilari jalb etiladi.

14. Test sinoviga jalb etilgan guruh nazoratchilari bilan shartnoma tuziladi.

15. Talabgor shaxsini tasdiqlovchi hujjat asosida video qayd etish qurilmalari orqali tekshirishdan o'tgach test sinoviga qo'yiladi.

16. Test sinovi o'tkazilayotgan auditoriyaga har qanday qo'llanma, adabiyotlar, telekommunikatsiya va texnika vositalarini olib kirish qat'iyan man etiladi. Test sinovini o'tkazish jarayoniga turli xatti-harakatlar bilan salbiy ta'sir qilish: boshqa talabgorlar bilan muloqot qilish, test topshiriqlari

kitobi varaqlarini yirtish, test topshiriqlari kitobini boshqa talabgorlarga berish, test sinoviga ajratilgan vaqt tugagandan so'ng yozishni davom ettirish, boshqa talabgorga birorta buyum uzatish taqiqlanadi.

Ushbu talablarga rioya qilmagan talabgor test sinovidan chetlashtiriladi va dalolatnoma rasmiylashtiriladi. Chetlashtirish dalolatnomasi Agentlikning test sinovini kuzatib boruvchi mas'ul xodimi va guruh nazoratchisi tomonidan rasmiylashtiriladi.

Chetlashtirish dalolatnomasi natijalarning hisoblanmasligiga asos bo'ladi.

17. Test sinovlari natijalari bo'yicha testologiya me'yorlarining buzilish holati aniqlansa, Agentlik tomonidan test sinovi natijalari bekor qilinadi.

Quyidagi holatlarda testologiya me'yorlari buzilgan deb hisoblanadi:

test materiallari xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlash qoidalarini buzilsa;

talabgorlar tomonidan test materiallarini oldindan qo'lga kiritish holati aniqlansa;

test sinovi natijalari tahliliga ko'ra taqsimot normal taqsimotdan keskin farq qilsa.

Bunda mazkur bandning beshinchi xatboshisida ko'rsatilgan holat faqat ayrim hududlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri yoki

viloyatlardan birortasida)da aniqlangan taqdirda, ushbu hududlardagi test sinovlari natijalari bekor qilinadi.

Test sinovi natijalari mazkur bandga muvofiq bekor qilingan holatlarda, talabgorlarning xohishiga ko'ra amalga oshirilgan to'lov miqdori qaytariladi yoki qayta test sinovlari tashkil etiladi.

3-bob. Amaliy (ijodiy) imtihonlarni tashkil etish tartibi

18. Musiqa madaniyati fani bo'yicha baholash mezonlari hamda ijodiy sinovlar muddatlari Madaniyat vazirligi tomonidan, jismoniy tarbiya fani bo'yicha baholash mezonlari hamda ijodiy sinovlar muddatlari Sport vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va Agentlik bilan kelishiladi va tasdiqlanadi hamda ularning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

Amaliy (ijodiy) sinovni o'tkazish muddati talabgorlar sonidan kelib chiqib belgilanadi.

19. Talabgorlar fuqarolik pasporti (fuqaroligi bo'lmagan shaxsning yashash guvohnomasi) yoki ID kartasi hamda elektron ariza nusxasi bilan amaliy (ijodiy) sinovlarda ishtirok etadi.

20. Amaliy (ijodiy) sinovni o'tkazish joyi va sanasi mos ravishda Madaniyat vazirligi va Sport vazirligi tomonidan Agentlik bilan kelishgan holda belgilanadi.

21. Amaliy (ijodiy) sinovlar talabgorlarning mutaxassisligi bo'yicha bilimni baholashning barcha bo'limlarini qamrab olingan holda bir bosqichda amalga oshiriladi.

22. Amaliy (ijodiy) sinovlarga kelmagan talabgorlar uchun amaliy (ijodiy) sinov qayta tashkil etilmaydi.

Agar talabgor Agentlik tomonidan o'tkazilgan test sinovida qatnashib, faqat uzrli sabablarga ko'ra (kasalligi, yoki oila a'zolarining vafot etganligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etganda) amaliy (ijodiy) imtihonda qatnasha olmagan bo'lsa, talabgor uch ish kuni mobaynida ushbu holatni tasdiqlovchi hujjatni tegishliligi bo'yicha Madaniyat yoki Sport vazirligiga bevosita yoki elektron tarzda taqdim etishi lozim. Bunda, talabgorning arizasiga muvofiq navbatdagi amaliy (ijodiy) imtihon topshirishga ruxsat beriladi.

23. Amaliy (ijodiy) sinovlar Madaniyat vazirligi tizimidagi "Madaniyat ta'limi markazi" davlat muassasasi mas'ul xodimining rahbarligida o'tkaziladi. Sport vazirligi tizimida hududiy Sport boshqarmalarining Ixtisoslashtirilgan sport ta'lim muassasalari bilan ishlash sho'basi boshlig'i rahbarligida o'tkaziladi.

24. Musiqa madaniyati fani bo'yicha amaliy (ijodiy) sinov vaqtida bir nafar talabgor ishtirok etadi. Jismoniy tarbiya fani bo'yicha amaliy (ijodiy) sinovda talabgorlar yakka va jamoa bo'lib qatnashishlari mumkin.

Amaliy (ijodiy) sinov o'tkazish jarayoni doimiy videotasvirga olinadi.

25. Amaliy (ijodiy) sinovni o'tkazish uchun 5–7 nafar sohaning yetakchi mutaxassislaridan iborat komissiya shakllantiriladi. Amaliy (ijodiy) sinovga jalb etilgan komissiya a'zolari bilan shartnoma tuziladi.

26. Musiqa madaniyati fani bo'yicha talabgor mutaxassisligidan kelib chiqib, musiqa cholg'usi hamda jo'rnavoz ishtirokida ijodiy sinovda ishtirok etishi mumkin.

27. Amaliy (ijodiy) sinovga telekommunikatsiya va texnika vositalarini olib kirish qat'iyan man etiladi. Amaliy (ijodiy) sinovni o'tkazish jarayoniga turli xatti-harakatlar bilan salbiy ta'sir qilgan talabgor sinovdan dalolatnoma bilan chetlashtiriladi.

28. Chetlashtirish dalolatnomasi natijalarning hisoblanmasligiga asos bo'ladi.

29. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari uchun amaliy imtihon ikki turda o'tkaziladi, mazkur Nizomga 1-2-ilovalariga muvofiq jismoniy tayyorgarlik darajasi normativi va sport turlarining texnik harakatlarini bajarish sinovlari asosida baholanadi.

Birinchi turda jismoniy tayyorgarlik darajasi normativi sinovi, ikkinchi turda ta'lim dasturiga kiritilgan 8 ta sport turi (yengil atletika, gimnastika, futbol, voleybol, gandbol, basketbol, shaxmat va kurash)ning texnik harakatlarini bajarish sinovidan iborat.

Amaliy imtihonni birinchi turida jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari jismoniy tayyorgarlik darajasi 3 ta normativ asosida 40 ballik tizimda baholanadi. Ikkinchi turida ta'lim dasturiga kiritilgan 8 ta sport turi bo'yicha 5 ta texnik harakatlar hamda baland buyruq ohangiga va bir vaqtda buyruqni to'liq, to'g'ri va sifatli bajarilganligiga ko'ra 40 ballik tizimda baholanadi.

Musiqqa madaniyati fani o'qituvchilarining ijodiy imtihon sinovlari mazkur Nizomga 3-ilovaga muvofiq baholash mezoni asosida 75 ballik tizimda baholanadi.

30. Amaliy (ijodiy) sinovlari natijalari ular yakunlangan kundan boshlab uch ish kunidan kechikmay Madaniyat vazirligi hamda Sport vazirligi tomonidan birinchi rahbar yoki rahbar o'rinbosarlaridan birining imzosi bilan Agentlikka taqdim etiladi. Amaliy (ijodiy) sinov natijalari bo'yicha olingan ballar, test sinovida olingan ballar bilan bir xil shkalaga keltiriladi va ularning o'rtacha arifmetik qiymati umumiy ball sifatida e'lon qilinadi.

4-bob. To'lov shartlari

31. Test sinovlarini o'tkazish uchun to'lov talabgor tomonidan amaldagi elektron to'lov tizimlari orqali ariza berilgan kundan boshlab uch kun mobaynida amalga oshiriladi.

To'lov to'g'risidagi ma'lumotni talabgor o'zining shaxsiy kabineti orqali biladi.

32. Agar talabgor turli sabablarga ko'ra test sinovlarida ishtirok eta olmaydigan bo'lsa, Agentlikka test sinovlari o'tkaziladigan kundan kamida uch kun oldin yozma yoki elektron shaklda murojaat etishi lozim.

Uzrli sababga ko'ra (kasalligi yoki oila a'zolarining vafot etganligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etganda) test sinovlarida qatnasha olmagan talabgor test sinovi boshlangan kundan boshlab besh ish kuni mobaynida ushbu holatni tasdiqlovchi hujjatlarni Agentlikka bevosita yoki elektron tarzda taqdim etishi lozim.

Bunda talabgorning arizasiga muvofiq navbatdagi test sinovlariga kiritilishi ta'minlanadi yoki to'langan to'lov to'liq miqdorda talabgorga qaytariladi.

33. Talabgor test sinoviga kechikkan yoki sababsiz kelmagan hollarda, talabgor tomonidan amalga oshirilgan to'lov qaytarilmaydi.

5-bob. Apellyatsiyalarni ko'rib chiqish tartibi

34. . Amaliy (ijodiy) imtihon natijalaridan norozi bo'lgan talabgor mos ravishda Madaniyat vazirligi va Sport vazirligida tashkil etilgan Apellyatsiya komissiyasiga, test sinovi natijasidan norozi bo'lgan talabgor Agentlikda tashkil etilgan Apellyatsiya komissiyasiga umumiy natijalar e'lon qilingan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida yozma yoki elektron shaklda apellyatsiya berish huquqiga ega.

35. Apellyatsiya komissiyasining tarkibi 5 yoki 7 nafardan iborat bo'ladi. Apellyatsiya ikki hafta mobaynida ko'rib chiqiladi. Talabgor Apellyatsiya komissiyasi qarori to'g'risida yozma yoki elektron shaklda xabardor qilinadi.

36. Apellyatsiyani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

Amaliy (ijodiy) imtihon (test sinovi) natijalarini o'zgarishsiz qoldirish va apellyatsiyaning qanoatlantirilishini rad etish;

Amaliy (ijodiy) imtihon (test sinovi) natijalarini o'zgartirish va apellyatsiyani qanoatlantirish.

Agar talabgor tomonidan ko'rsatilgan dalillar tasdiqlanmasa, apellyatsiyaning qanoatlantirilishini rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Agar talabgor tomonidan ko'rsatilgan dalillar asosli deb topilsa, apellyatsiya komissiyasi qarori bilan amaliy (ijodiy) imtihon (test sinovi) natijalari o'zgartiriladi.

37. Takroriy apellyatsiyaga yo'l qo'yilmaydi.

Talabgor Apellyatsiya komissiyasining qarori yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga shikoyat qilishi mumkin.

6-bob. O'qituvchilarning bilim darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash bo'yicha davlat namunasidagi sertifikatni berish tartibi

38. Sertifikat ijobiy natijaga erishgan talabgorga umumiy natijalar e'lon qilingan kundan boshlab bir hafta mobaynida Agentlik direktorining buyrug'i asosida elektron shaklda beriladi. Agentlik tomonidan talabgorga sertifikatni elektron shaklda yuklab olish imkoniyati yaratiladi.

39. Sertifikatlar reyestri Agentlik tomonidan yuritiladi.

Sertifikatlar reyestrda quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

talabgorning familiyasi, ismi, otasining ismi;

pasport ma'lumotlari (seriyasi va tartib raqami, pasportning kim tomonidan va qachon berilganligi) yoki tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma ma'lumotlari (tartib raqami, guvohnomaning kim tomonidan va qachon berilganligi);

Agentlikning sertifikat berish to'g'risidagi buyrug'ining sanasi va tartib raqami;

sertifikatning hisobga olish seriyasi va tartib raqami;

sertifikatning berilgan sanasi;

sertifikatning amal qilish muddati.

40. Sertifikatning haqiqiyliги to'g'risidagi ma'lumotlarni Agentlikning rasmiy veb-sayti orqali tekshirish imkoniyati yaratiladi.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

41. Ushbu Nizomni qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

42. Ushbu Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Musiqa
madaniyati va jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining
bilim darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash va
sertifikat berish tartibi to'g'risida nizomga 1-ilova

Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari uchun amaliy (ijodiy) imtihon sinovlari jismoniy tayyorgarlik darajasi normativi (20 ball)

Erkaklar uchun						
100 m.ga yugurish (s)		60 m.ga yugurish (s)				Gimn bukmay
18-24 yosh	25-29 yosh	30-34 yosh	35-39 yosh	40-44 yosh	45-49 yosh	50-54 yosh

13,1	13,3	8,8	9,1	9,6	10,5	+2
13,5	13,8	9,8	10,2	10,6	11,3	+1
14,1	14,3	10,7	11,3	11,5	12,0	0
14,3	14,6	11,0	11,5	11,8	12,8	-1
14,4	14,8	11,3	11,7	12,0	13,5	-2
14,5	14,9	11,5	11,8	12,2	14,0	-3
14,6	15,0	11,7	11,9	12,4	14,5	-4

Erkaklar uchun						
Yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish (marta)		Gimnastika o'rindig'idan oyoq tizzalarini bukmay oldinga egilish (oyoq ostidan pastga hisoblanadi, sm)		Yerga tayangan holda qo'llarni (marta)		
21-24 yosh	25-29 yosh	30-34 yosh	35-39 yosh	40-44 yosh	45-49 yosh	50-54 yosh
48	46	+11	+10	28	27	12
42	40	+8	+7	22	21	10
36	34	+5	+4	17	15	8
33	31	+4	+3	15	13	7
30	28	+3	+2	13	11	6

28	26	+2	+1	12	10	5
26	24	+1	0	11	9	4

Erkaklar uchun						
Chalqancha yotgan holatdan gavdani 90° ga ko'tarib tushirish (1 daq, marta)		Turgan joyidan uzunlikka sakrash (sm), (3 ta imkoniyatdan eng yaxshisi hisoblanadi)		Turnikda tortilish (mar)		
18-24 yosh	25-29 yosh	30-34 yosh	35-39 yosh	40-44 yosh	45-49 yosh	50-54 yo
40	37	230	225	9	8	6
37	35	220	215	7	6	5
35	33	210	205	6	5	4
32	30	205	200	5	4	-
30	28	200	195	4	3	3
27	25	195	190	3	2	2

Ayollar uchun			
100 m.ga yugurish (s)	60 m.ga yugurish (s)	30 m.ga yugurish (s)	O'tirib bilan ta

21-24 yosh	25-29 yosh	30-34 yosh	35-39 yosh	40-44 yosh	45-49 yosh	50-54 yc
15,0	16,0	10,5	11,0	6,2	6,5	35
15,7	16,6	11,3	12,2	6,8	7,4	30
16,4	17,2	12,1	13,4	7,4	8,2	25
16,7	17,5	12,6	13,6	8,0	8,5	20
17,0	17,8	13,1	13,8	8,5	8,7	15
17,2	18,0	13,3	14,0	8,7	8,9	11
17,4	18,2	13,5	14,2	8,9	9,1	8

Ayollar uchun						
Yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish (marta)	Gimnastika o'rindig'iga tayangan holda qo'llarni bukib yozish (marta)					
21-24 yosh	25-29 yosh	30-34 yosh	35-39 yosh	40-44 yosh	45-49 yosh	50-54 yc

17	16	13	11	10	8	8
14	13	10	8	7	6	6
12	11	7	6	5	4	5
11	10	6	5	4	-	4
10	9	5	4	3	3	3
9	8	4	3	2	2	2
8	7	3	2	1	1	1

Ayollar uchun						
Turgan joyidan uzunlikka sakrash (sm), (3 ta imkoniyatdan eng yaxshisi hisoblanadi)				O'tirib turish (marta)		Gimn bukmay
21-24 yosh	25-29 yosh	30-34 yosh	35-39 yosh	40-44 yosh	45-49 yosh	50-54 yc
180	170	170	165	50	40	0
175	160	160	150	40	30	-1
170	150	150	140	30	25	-2
160	140	145	137	17	15	-3
150	130	140	135	15	10	-4
145	125	135	130	10	5	-5

Izoh: “-” belgiga ball berilmaydi.

Musiqi
madaniyati va jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining
bilim darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash va
sertifikat berish tartibi to‘g‘risida nizomga 2-ilova

**Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari uchun amaliy (ijodiy) imtihon
sinovlari sport turlari bo‘yicha mashqlar texnikasi va baholash
mezonlari (40 ball)**

T/r	Sport turlari bo‘yicha mashqlar nomi	Ball
1.	Gimnastika sport turi bo‘yicha	5 ball
	Gimnastika o‘rindig‘ida bir oyoqda 2-3 soniya davomida “Qaldirg‘och” holatida turish texnikasi	
	Gimnastika narvonida osilib oyoqlarni 90° ga ko‘tarish texnikasi (1-3-marta)	
	Ikki marta ketma-ket oldinga umbaloq oshib “Kurak”larda tik turish texnikasi (1-3-marta)	
	Bosh va qo‘llarga tayanib oyoqlarni tik tutish texnikasi (1-3-marta)	
	Umumiy rivojlantiruvchi majmua (8-16-32 talik kompleks) mashqlarini (sanash bilan) bajarish texnikasi (1-3-marta)	
	“Saflan”, “Tekislan”, “Rostlan”, “O‘ngga”, “Chapga”, “Ortga”, “Qadam bos”, (buyruq berish ohangi) harakatlar texnikasi	

2.	Yengil atletika sport turi bo'yicha	
	Pastki startga turish va startdan chiqish texnikasi	5 ball
	Yuqori startga turish va startdan chiqish texnikasi	
	Yengil atletika maxsus yurish va yugurish mashqlari texnikasi	
	Yugurib kelib balandlikka "Hatlab o'tish" usulida sakrash texnikasi (1-3-marta)	
	To'ldirma to'p bilan maxsus uloqtirish mashqlarini bajarish texnikasi	
3.	Futbol sport turi bo'yicha	
	To'pni oyoqning ichki, tashqi va tag qismi bilan to'xtatish texnikasi (1-3-marta)	5 ball
	To'pni nishonga oyoqning ichki va tashqi tomoni bilan tepish texnikasi (1-3-marta)	
	To'pni oyoqning ichki va tashqi qismida 20 m masofaga olib yurish texnikasi (1-3-marta)	
	To'siqlar orasidan to'pni olib yurish texnikasi (5 ta to'siq)	
	To'pni yon chiziqdan o'yinga kiritish texnikasi (1-3-marta)	
4.	Voleybol sport turi bo'yicha	
	To'pni yuqoridan o'yinga kiritish texnikasi (1-3-marta)	5 ball
	To'pni pastdan o'yinga kiritish texnikasi (1-3-marta)	
	To'siq qo'yish texnikasini ko'rsatish (1-3-marta)	
	To'pni belgilangan nuqtaga yuqoridan va pastdan uzatish texnikasi (1-3-marta)	
	Diametri 180 sm doira ichida voleybol to'pini qisqa – qisqa yuqoriga uzatish (jonglyor) texnikasi (1-3-marta)	
5.	Basketbol sport turi bo'yicha	

	To'pni uzatish va oshirish (bir-ikki qo'lda ko'krakdan, poldan) texnikasi (1-3-marta)	5 ball
	Jarima to'pini savatga tashlash texnikasi (1-3-marta)	
	To'pni olib yurish texnikasi (1-3-marta)	
	To'pni ikki qadamda (pastdan, yuqoridan) savatga tashlash texnikasi (1-3-marta)	
	Basketbolda himoya (silindr) turish texnikasi (1-3-marta)	
6.	Gandbol sport turi bo'yicha	5 ball
	To'pni chap va o'ng qo'llarda olib yurish texnikasi (1-3-marta)	
	10 m masofaga to'pni yurish texnikasi (1-3-marta)	
	Gandbol to'pini uchta qadam tashlab uzatish texnikasi(1-3-marta)	
	Darvozaga to'pni uchta qadam tashlab otish (7 metrli masofadan) texnikasi(1-3-marta)	
	Darvozaga to'pni sakrab otish (9 metrli masofadan) texnikasi (1-3-marta)	
7.	Shaxmat	5 ball
	Ko'rsatilgan sipohni yurish yo'nalishlarini ko'rsatib berish	
	Farzin va shox bilan raqib shoxini mot qilish (20 soniyada)	
	Ruh va shox bilan raqib shoxini mot qilish (20 soniyada)	
	Qaysi sipoh piyodalardan oldin o'yinni boshlashini ko'rsatish	
	Pot holatini ko'rsatib berish	
8.	Kurash	5 ball
	Kurashda yumshoq yiqilish (straxovka) holatlarini ko'rsatib berish texnikasi	
	Supurma usulini ko'rsatib berish texnikasi	
	Chil usulini ko'rsatib berish texnikasi	

Usul va qarshi usullarga kirish va qayta chiqish (oyoq va qo'l harakatlari) texnikasi	
Kurashchilarni maxsus chigalyozdi mashqlarini ko'rsatib berish texnikasi	
Muvozanatdan chiqarish texnikasini o'rgatish (ayollar uchun)	
Kurashda turish holatlarini ko'rsatib berish texnikasi (ayollar uchun)	

***Izoh:** 8 ta sport turidan bittadan mashq bajariladi va quyidagi mezon bo'yicha baholanadi: Mashqlar texnikasi to'g'ri va to'liq bajarilganda (texnik harakat yakuniga yetkazilganda)*

***5 ball;** Mashqlar texnikasi to'g'ri bajarilganda (texnik harakat yakuniga yetmaganda) **4 ball;** Mashqlar texnikasi qisman to'g'ri bajarilganda (texnik harakat yakuniga yetkazilganda)*

***3 ball;** Mashqlar texnikasi noto'g'ri bajarilganda (texnik harakat yakuniga yetkazilganda)*

2 ball;** Mashqlar texnikasi noto'g'ri bajarilganda (texnik harakat yakuniga yetmaganda) **1 ball.

Musiq

madaniyati va jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining
 bilim darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash va
 sertifikat berish tartibi to'g'risida nizomga 3-ilova

**Musiqqa madaniyati fani o'qituvchilarining amaliy (ijodiy) imtihon
sinovlarini baholash mezonlari**

№	Ijodiy topshiriq nomi	Belgilangan vaqti	Har bir topshiriq uchun eng yuqori ball
1	Umumta'lim maktablarining 1-7 sinf darsliklariga kiritilgan asarlardan bittasini ijro etish. <i>(Musiqqa cholg'u asbobida ijro qilgan pedagoglarga ustunlik beriladi.)</i>	10-15 daqiqa	30 ball
2	Asarni notadan o'qish va tahlil qilish.	5-8 daqiqa	15 ball
3	Musiqqa nazariyasi va adabiyotidan bilet savollari.	5-8 daqiqa	15 ball
4	Kollokvium – Pedagogning bilim darajasini aniqlash. <i>(Madaniyat va san'at sohasi bo'yicha)</i>	5-8 daqiqa	15 ball

Izoh: *Pedagoglarga umumta'lim maktablarining 1-7 sinf darsliklariga kiritilgan asarlardan bittasini ijro etish, asarni notadan o'qish va tahlil qilish, musiqqa nazariyasi va adabiyotidan savollar yopiq bilet ko'rinishida beriladi.*

Vazirlar

Mahkamasining
2025-yil “ ”-martdagi -son qaroriga
2-ilova

**O'qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahorati to'g'risidagi
sertifikatning davlat namunasi va tavsifi**

**O'qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahorati to'g'risidagi
sertifikatning davlat namunasi va tavsifi**

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Bilim va malakalarni baholash agentligi

**O'QITUVCHINIG BILIM DARAJASI VA KASBIY MAHORATI
TO'G'RISIDA SERTIFIKAT**

Sertifikat raqami:

Talabgorning shaxsiy
kodi:

Familiyasi:

Ismi:

Otasining ismi:

Fan:

Umumiy
toʻplagan
bali:

Umumiy
ballga
nisbatan
foiz
koʻrsatkichi:

Sertifikat
darajasi



Berilgan
sanasi

Amal qilish
muddati:

Direktor

Imzo

F.I.O.

O'qituvchinig bilim darajasi va kasbiy mahorati to'g'risidagi sertifikat A4 formatdagi oq qog'ozga ofset usulida bosiladi. Bunda beshta rangdan foydalaniladi: qora rang — matn uchun, yashil, ko'k, qizil ranglar — rasmlarni tasvirlash uchun, och jigarrang — fon uchun. Varaqning yuqori qismida 25 mm diametrda Davlat gerbining tasviri joylashtirilgan.

Varaqning qolgan qismiga davlat tilida lotin yozuvida “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi. o'qituvchinig bilim darajasi va kasbiy mahorati to'g'risida sertifikat” so'zlari bosiladi. Sertifikat olti raqamli tartib raqamiga egadir.